

SIYDIK YO'LINING YUQORI QISMIDAGI YIRIK TOSHLARI BILAN KASALLANGAN BEMORLARNI MINIMAL INVAZIV DAVOLASH USULLARI SAMARADORLIGINING QIYOSIY TAVSIFLANISHI

QURBONOV NURIDDIN PANJI O'G'LI
CENTRAL ASIAN MEDICAL UNIVERSITY ASISTENTI
e.pochta: qurbonov.nuriddin94@gmail.com

Kirish

Siydik yo'li tosh kasalligi (urolitioz) dunyo bo'ylab keng tarqalgan urologik muammolardan biri bo'lib, yuqori siydik yo'lida katta o'lchamdagi toshlarning mavjudligi bemorlarning hayot sifatini pasaytiradi va shoshilinch tibbiy yordamga ehtiyojni oshiradi. Hozirgi kungacha bu bemorlarni tekshirish va davolashning optimal algoritmi bo'yicha yagona fikr yo'q. Shu sababli, yuqori siydik yo'lida katta toshlar bilan og'rigan bemorlarni tekshirishning samarali va maqsadga muvofiq usullarini aniqlash dolzarb masala hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi shundan iboratki yuqori siydik yo'lida katta o'lchamdagi toshlar bilan og'rigan bemorlarni tekshirishning optimal usullarini aniqlash va diagnostika jarayonining samaradorligini oshirish.

Tadqiqot quyidagi vazifalarini o'z oldiga qo'ygan:

1. Yuqori siydik yo'lida katta toshlari bo'lgan bemorlarni tekshirishda qo'llaniladigan asosiy tasviriy va laborator usullarni tahlil qilish.
2. Diagnostikaning samaradorligini oshirish uchun kompyuter tomografiya (KT), ultratovush tekshiruvi (UTT) va rentgenografiya kabi tasviriy tekshiruvlarning o'zaro solishtirilgan natijalarini baholash.
3. Siydik yo'lida yallig'lanish jarayonlari va buyrak faoliyati buzilishlarini aniqlash uchun laborator va klinik tadqiqotlarning ahamiyatini baholash.
4. Tekshirish algoritmini ishlab chiqish orqali yuqori siydik yo'lida katta toshlar bilan og'rigan bemorlarda tashxis qo'yish jarayonini takomillashtirish.

Birinchi marta yuqori siydik yo'lida katta toshlar bilan og'rigan bemorlarni tekshirishda kompyuter tomografiya, ultratovush va rentgenografiya natijalari asosida diagnostika usullarining samaradorligi tizimli ravishda taqqoslandi. Bundan tashqari, yallig'lanish jarayonlari va buyrak funksional holatini baholash uchun laborator tekshiruvlarning diagnostik ahamiyati aniqlab berildi.

Ushbu tadqiqot natijalari asosida yuqori siydik yo'lida katta o'lchamdagi toshlar bilan og'rigan bemorlarni samarali tekshirish algoritmi ishlab chiqiladi. Bu esa tashxis qo'yish jarayonini soddalashtirish va bemorlarning shoshilinch davolashga bo'lgan ehtiyojini aniq baholash imkonini beradi.

Xulosa qiladigan bo'lsak yuqori siydik yo'lida katta o'lchamdagi toshlar bilan og'riqan bemorlarni samarali tekshirish uchun tasviriyl diagnostika (KT, UTT, rentgenografiya) va laborator tahlillarning kombinatsiyasi eng optimal yondashuv hisoblanadi. Ushbu usullarni aniq algoritmlar asosida qo'llash tashxis qo'yish jarayonini tezlashtirish va davolash taktikasini belgilashda aniqroq qaror qabul qilish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Türk C., Petřík A., Sarica K. va boshqalar. (2022). EAU Guidelines on Urolithiasis.
2. Smith A. D., Preminger G. M., Badlani G. H. (2019). Smith's Textbook of Endourology.
3. Wein A. J., Kavoussi L. R., Novick A. C. (2021). Campbell-Walsh Urology. 12th Edition.
4. Stamatelou K. K., Francis M. E., Jones C. A. (2003). Time trends in reported prevalence of kidney stones in the United States: 1976-1994. Kidney International.
5. Traxer O., Knoll T. (2018). The Role of Ureteroscopy and Shock Wave Lithotripsy in the Management of Urolithiasis.
6. Desai M., Desai J. (2020). Percutaneous and Endoscopic Techniques in Urology.